

## **FORMATSION YONDASHUV IJTIMOIIY TARAQQIYOTNI O‘RGANISHNING METODOLOGIYASI SIFATIDA**

**Hakimov Akmaljon Mirzag‘anievich**

Toshkent davlat texnika universitetining

Qo‘qon filiali katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Formatsion yondashuv jamiyat taraqqiyotini tahlil qilish metodologiyasi sifatida fikr yuritilgan. Bunda tabiatni o‘zgartirish maqsadidagi insonning hissiy-amaliy faoliyati ong bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unga dunyoning qanday tuzilganligi haqidagi bilimlarni yetkazib berib turadi.*

**Kalit so‘zlar:** Rivojlanish, taraqqiyot, o‘zgarish, modernizatsiya, retrospektiv yondashuv, formatsion yondashuv.

## **ФОРМАЦИОННЫЙ ПОДХОД КАК МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается формативный подход как методология анализа социального развития. При этом эмоционально-практическая деятельность человека, направленная на изменение природы, неразрывно связана с сознанием, снабжая его знаниями об устройстве мира..*

**Ключовие слова:** развитие, прогресс, изменение, модернизация, ретроспективный подход, формационный подход.

## **THE FORMATIONAL APPROACH AS A METHODOLOGY OF STUDYING SOCIAL DEVELOPMENT**

### **ABSTRACT**

*This article discusses the Formative Approach as a methodology for analyzing social development. In this article, the emotional and practical activities of a person aimed at changing nature are inextricably linked to consciousness, providing it with knowledge about how the world is structured.*

**Keywords:** development, progress, change, modernization, retrospective approach, formational approach.

## **KIRISH**

Jamiyat o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlarni boshdan kechirdi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, jamiyatning qay darajadagi voqeilik sifatida mavjud bo'lishida uning taraqqiyotiga nisbatan munosabatlar katta rol o'ynaganligini tarixdan ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, bugungi kun voqeiligi ham ana shundan yaqqol guvohlik beradi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalarni o'rganish bu borada buyuk nemis faylasufi Immanuil Kantning o'ziga xos, alohida fikrda bo'lganligidan darak beradi. Gap shundaki, XVII – XVIII asrlarda yangi Yevropa bir qator muammolar qatori jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq muammolarni ham uzoq davrdan buyon ratsional hal etish yo'llarini izlayotgan edi. Shu bois ijtimoiy hayotning har bir jabhasida ratsionalizm ruhi kirib borayotgan o'sha davrda I.Kant o'zining mashhur "Sof aqlni tanqid" asarida shu davrga qadar hech kimning xayoliga ham kelmagan ko'plab innovatsion fikrlarni ilgari surdi. Jumladan, Kant o'zining ana shu asarida muammoning uchta jihatini katta aniqlik bilan shakllantirib berdi va u keyinchalik butun fan tarixida chuqur iz qoldirdi. Kant ilgari surgan uchta savol quyidagicha edi: "Men nimani bilishim mumkin? Men nima qilishim kerak? Men nimaga umid qilishim mumkin?" Keyinchalik Kant ana shu uchta savolni inson va uning dunyodagi maqsadi haqidagi bitta savolga umumlashtirish mumkinligini ta'kidladi.

Bunda tabiatni o'zgartirish maqsadidagi insonning hissiy-amaliy faoliyati ong bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga dunyoning qanday tuzilganligi haqidagi bilimlarni yetkazib berib turadi. Bu bilim turli shaklda bo'lishi mumkin. Ikkinchi soha – bu jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan nazariy bilimlarning bilish jarayonida fanning mavqei va roli bilan bog'liqligidir. Odamlar tomonidan ma'naviy-qadriyatlar voqeiligini o'zgartirish bilan bog'liq uchinchi soha esa hissiy-amaliy soha bilan nazariy o'rtasidagi bog'liqlik vazifasini bajaradi. Kant tomonidan juda nozik tarzda ifodalab berilgan bu omillar jamiyat hayotini tashkil etish va taraqqiyotini ta'minlashda katta rol o'ynaydigan omillardir.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy falsafa Kant davriga nisbatan ancha ildamlab ketgan, deyishimiz mumkin. Natijada bu masalada jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etish mumkin bo'lgan xilma-xil omillar turlicha faylasuf olim va mutaxassislar tomonidan ilgari surilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat taraqqiyotini tushuntirish borasidagi barcha yondashuvlar tarixiy rivojlanish qonunlarini ochib berishga qaratilgan konsepsiyalardir. Ular o'z navbatida insonlarga qanday davrda yashayotganligi, tarixiy taraqqiyotning insoniyat uchun xizmat qilayotganligi, uning istiqboli uchun mazkur qonunlarning qay darajada xizmat qila olishi, ijtimoiy voqeilikning mohiyati

haqiqiy, bo'yamasdan, bo'rttirmasdan qanchalik to'g'ri aks ettirilayotganligi kabi savollarga javob topish imkonini beradi. Shunday ekan, jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyoti masalalarini qanday konsepsiya nuqtai nazaridan o'rganish kishilarning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Uzoq yillar mobaynida Marks tomonidan asoslab berilgan va ilgari surilgan jamiyatning formatsion rivojlanishi to'g'risidagi nazariya, aytish lozimki, tarixiy taraqqiyot qonunlarini tushunishga katta ta'sir etgan yondashuvlardan biri bo'ldi. Unga ko'ra, insoniyat jamiyati doimo ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi ko'rinishida taraqqiy etadi. O'z davrida mukammallikka da'vo qilgan ushbu nazariyaga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya deganda moddiy hayotning tarixan hukmron bo'lgan ishlab chiqarish usuliga asoslangan jamiyatning muayyan tarixiy tipi tushuniladi.

Formatsion yondashuvni yoritib berish uchun "ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya" tushunchasi konseptual ahamiyatga ega bo'lsa, sivilizatsion yondashuv uchun esa "sivilizatsiya" tushunchasi asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tushunchalarni tahlil qilmasdan turib mazkur yondashuvlarning mohiyatini atroflicha anglab yetish uchun mumkin emas. Shunday ekan, oldimizda turgan vazifani bajarishga kirishishni dastlab "formatsiya" kategoriyasini tahlil etishdan boshlaymiz.

"Formatsion yondashuv" atamasini qo'llash uchun "formatsiya" tushunchasi asos bo'lib xizmat qiladi, albatta. Ushbu tushunchaning etimologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ilmiy leksikonda, dastlab, geologiya fanida XVIII asrda, bu tushunchadan, birinchi navbatda, turli geologik qatlamlarning muayyan tipdagi qalin cho'kindilarining o'zaro o'xshashliklarini ifodalash maqsadida foydalana boshlanganligini ko'rish mumkin. Shuning uchun K.Marks tomonidan geologiya fani terminini o'zlashtirgan holda bu tushunchadan keng foydalanishi o'z vaqtida falsafa fani uchun ham, jamiyatshunoslikning boshqa fanlari uchun ham yangilik bo'lgan edi.

"Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya" tushunchasidan ilmiy gnoseologik kategoriya sifatida K. Marks birinchi marta o'zining "Lui Bonapartning o'n sakkizinchi bryumeri" asarida foydalangan [1]. Bunda u hali endigina shakllanib kelayotgan burjuaziyaning manfaatlarini ifodalaydigan g'oyalarning shakllanish xususiyatlariga asosiy e'tiborni qaratgan edi. Natijada K. Marks o'shanda bu g'oyalar boshida burjua mafkurachilari tomonidan quldorchilik va feodalizmga xos bo'lgan ijtimoiy ong shakliga moslashtirilganligini qayd etgandi. Biroq bu hali burjua munosabatlari hali qaror topib ulgurmagani va xuddi shu bois unga nisbatan e'tibor qaratish davrning

diqqat markaziga ko'chmagan paytda ro'y bergandi. Ammo kapitalizmning yangi formatsiya sifatida qaror topishi bilanoq, uning mohiyatini anglash maqsadidagi gnoseologik yondashuvlar ham keskin o'zgardi

Marksning ana shunday yondashuvidan kelib chiqqan holda bir necha o'n yilliklar mobaynida insoniyat jamiyati tarixini asosan beshta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tashkil etishi ta'kidlab kelindi. Bular: 1) ibtidoiy-jamoa tuzumi; 2) feodal tuzum; 3) kapitalizm; 5) kommunistik tuzum.

Jamiyat taraqqiyotini bunday formatsiyalarga ajratishning asosiy muallifi Marks hisoblanadi, Uning fikricha, formatsiyaning asosiy belgisi o'ziga xos bo'lgan moddiy ishlab chiqarish usulining betakrorligi hisoblanadi. Ayni paytda, Marksning o'zi yozishicha, har bir formatsiya insoniyatning ilgarilanma taraqqiyotida muayyan bosqich bo'lib, tabiiy-tarixiy xususiyatga ega.

Boshqacha qilib aytganda, formatsion yondashuvga ko'ra, har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyatning tarixiy rivojlanishining alohida davrga xos bo'lgan holatini aks ettiradi. Formatsion yondashuvga ko'ra har bir ijtimoiy-iqtisodiy fomatsiya o'ziga xos ishlab chiqarish usuliga ega bo'ladi, biroq ayni paytda o'zidan oldingi formatsiyaga xos bo'lgan ishlab chiqarish usulining ayrim jihatlari ham muayyan muddat saqlanib turadi va amaldagi tuzum eskilik qoldiqlariga qarshi kurash olib boradi va ulardan qutulish, yangilikning to'liq tantana qilishi uchun harakat qiladi.

Buning asosiy sabablaridan biri, adolat yuzasidan aytganda, tarixiy rivojlanishning formatsion konsepsiyasida ma'lum darajada ob'ektiv mantiq mavjudligi bilan izohlanadi.

Bunda nima nazarda tutilmoqda? Gap shundaki, 1-dan, har bir formatsiya o'z rivojlanishining ichki bosqichlarida farq qiladi. 2-dan, keyingi formatsiyaga o'tish faqat quyidagi hollarda shakllanishi mumkin:

-rivojlanishda iqtisodiy jihatdan yuksaklikka ko'tarilgan chog'da ishlab chiqarish munosabatlarida keskin o'zgarishlarning kuzatilishi;

-ijtimoiy voqeilikda tobora keskinlashib borayotgan iqtisodiy, siyosiy qarama-qarshilik va ziddiyatlarni hal etish imkonining qolmasligi;

-jamiyat hayotida yuzaga kelgan tang vaziyatni hal etish va moddiy hayotni ishlab chiqarishga qodir bo'lgan yangi formatsiya elementlarining paydo bo'la boshlashi.

3-dan, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan boshqasiga asosan ikki xil yo'l bilan, ya'ni tabiiy-tarixiy, evolyusion hamda inqilobiy tarzda o'tish mumkin.

Ma'lumki, yaqin bir asr mobaynida formatsion yondashuv jamiyat taraqqiyotini o'rganishning eng ilmiy va eng to'g'ri yo'li deb hisoblab kelindi. Marksning bu

qarashlarini Lenin o‘zi yashagan davrning xususiyatlaridan kelib chiqib yanada rivojlantirdi va o‘ziga xos yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa mazkur ta’limotni nazariy asos va harakat dasturi qilib olgan kommunistik partiya mafkurasining kuchayishi va pirovard oqibatda uzoq davr mobaynida hukmronlik qilishi uchun zamin bo‘lib xizmat qildi.

Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan bunday markscha formatsion yondashuv, garchi, barcha yondashuvlar orasida bir qator jihatlari bilan tubdan farq qilib tursa-da, biroq uning bir qator kamchiliklari ham bor edi. Bu kamchiliklar xususida ochiq-oydin gapirish va fikr yuritishga o‘z davrida hukmronlik qilgan kommunistik mafkura yo‘l qo‘ymadi va bu bilan jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy to‘sqinlik qildi. Natijada asta-sekinlik bilan butun boshli tuzumning inqirozga yuz tutishiga sababchi bo‘ldi.

Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti masalalarida markscha formatsion yondashuvning asosiy kamchiliga nimada edi?

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nazariyasining asosiy qoidalari K. Marksning “Siyosiy iqtisodni tanqidiga doir”(1859) asarida batafsil bayon qilib berilgan.

Formatsion yondashuvga ko‘ra, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy manbai sifatida ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar tashkil qiladi. Marks nazariyasiga muvofiq jamiyatning iqtisodiy strukturasi ana shu elementlarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, butun jamiyatning real bazisini tashkil qiladi va huquqiy va siyosiy ustqurma uning ustiga quriladi, ijtimoiy ongning boshqa shakllari esa unga mos bo‘ladi. Ana shu tarzda K. Marks ishlab chiqarish kuchlarining ishlab chiqarish munosabatlari jarakteru va darajasiga moslik qonunini o‘ylab topdi. Unga ko‘ra jamiyat rivoji va taraqqiyoti ro‘y berishi uchun doimo ishlab chiqarish kuchlari tezroq rivojlanishi lozim. Natijada mehnat quollarining tez yangilanishi chog‘larida ishlab chiqarish munosabatlari bilan ishlab chiqarish kuchlari o‘rtasidagi muvozanat buziladi: yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar eski ishlab chiqarish munosabatlari qobig‘ida rivojlana olmay qoladi, oqibatda bunday nomuvofiqlik ziddiyatni yuzaga keltiradi va yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘zlari rivojlana oladigan yangi ishlab chiqarish munosabatlari qobig‘ini yaratish payiga tusha boshlaydi.

Ijtimoiy sohada bu sinfiy manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarda aks etadi. Tarixiy jarayonning sub’ekti bo‘lgan alohida sinflar muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya doirasida sotsial progress va taraqqiyotning tashabbuskori va moddiy tashuvchilari( mas., burjua jamiyatida proletariat) bo‘lib maydonga chiqadi. Ziddiyatlarning kuchayishi hamda chuqurlashuvi oqibatida ularni yechish va bartaraf etish uchun sinflar o‘rtasidagi kurash vaqt o‘tishi bilan asta-sekin inqilob shakliga aylanadi.



Shunday qilib, har qanday ijtimoiy inqilob uchun, K. Marks fikricha, jamiyatning progressiv tarzda rivojlanayotgan yangi ishlab chiqarish kuchlari bilan eskirgan iqtisodiy munosabatlar o'rtasidaga nomuvofiqlikning avj olishi va keskinlashuvi zamin bo'lib xizmat qiladi. Natijada eski ishlab chiqarish munosabatlarini yangisi bilan almashtirish jamiyatni sifat jihatdan yangilanishi va yangi tipdagi ishlab chiqarish munosabatlarining qaror topishiga olib keladi. Shuningdek, K. Marksning xulosalariga ko'ra, iqtisodiy bazisda ro'y beradigan o'zgarishlar siyosiy ustqurmada ham o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi[2]. Pirovard oqibatda esa, oldingisiga nisbatan yuqoriroq darajada rivojlangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya vujudga keladi. Bu K. Marksning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nazariyasidagi asosiy xulosa sifatida tarixni materialistik tushunish to'g'risidagi ta'limotda ham jamiyat taraqqiyotini tushuntirishda formatsion yondashuvning eng muhim gnoseologik tamoyilini tashkil qiladi.

Ushbu tahlildan ko'rinadiki, Marksning formatsion yondashuvda tarixiy taraqqiyot tabiiy, kishilar ongiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan yanada rivojlanganroq va progressivroq bo'lgan boshqa tipiga o'tib borish jarayoni sifatida talqin qilinadi va ayni paytda barcha ijtimoiy o'zgarishlarning katalizatori bo'lib sotsial inqiloblar yordamida o'z yechimini topadigan ijtimoiy ziddiyatlar hisoblanishi g'oyasi ilgari suriladi.

Bizning fikrimizcha, formatsion yondashuv jamiyat hayotini ham, uning butun tuzilishi va mohiyatini ham siyosiy lashtirishga qaratilganligini ko'rsatish negizida sivilizatsion yondashuvning ratsionalligi, uning umuminsoniy jihatlariga egaligini ochib berish kerak.

Xo'sh bu nima beradi o'zi? degan yana bir mantiqiy savol ham tug'ilishi mumkin.

Gap shundaki, jamiyat taraqqiyotini aks ettiradigan har bir ta'limot yoki nazariya o'z davri jamiyatining manzarasini yaratish, kishilarning ongida o'zlari istiqomat qilayotgan davr va jamiyat to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Markscha nazariya esa bu borada o'z davrining siyosiy doiralari uchun xizmat qilgan nazariya sifatida tarixda qoldi. Fikr erkinligi, vijdon erkinligi, demokratiya, ijodiy erkinlik, faoliyat erkinligi kabilarni bo'g'ish, jamiyatda o'rnatilgan hukmron mafkuraga xizmat qilish doirasi va talablariga mos tarzda fikrlash va harakatlanish hamda faoliyat ko'rsatishdan iborat tartibli tuzumni yaratdi. Ana shunday cheklangan qolip ichida fikrlash va yashashga butun jamiyat mahkum etildi. O'z fikriga ega kimsalar ta'qib etildi yoki jazolandi. Bunday tuzum va tizimdan norozi bo'lgan ko'plab kimsalar mamlakatni tashlab chiqib ketish va muhojirlikda yashash istagida ajnabiy yurtlar tomon yo'l olishga majbur bo'ldilar.

Qolaversa, inqilob yo‘li bilan rivojlanish jamiyat taraqqiyotining yagona yo‘li emas. Inqilobga da‘vat etish esa ijtimoiy fanlarning vazifasiga kirmaydi, bizningcha. Xilma-xil taraqqiyot yo‘llarini topish va anglash uchun ham demokratiya va erkinlik zarur edi. Shuning uchun kishilarning ijtimoiy ongi va dunyoqarashi ana shunday yondashuvlarning xilma-xilligiga asoslanishi zarur. Bunday yondashuv esa keyingi yillarda jamiyat taraqqiyotiga formatsion yondashuv o‘rniga sivilizatsion yondashuvning mazmun-mohiyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etishdan iborat.

Ushbu o‘rinda shuni alohida eslatish o‘rinliki, formatsion yondashuvdan farqli ravishda sivilizatsion yondashuv amalda butunlay XIX asrdagi fanlar rivoji doirasida shakllandi va deyarli 250 yil mobaynidagi taraqqiyoti davomida fan taraqqiyotida kuzatilgan bosqichlarga xos bo‘lgan talablarga muvofiq ravishda bir necha bor tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi.

Bu o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, fanda ushbu tushunchaga nisbatan xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, “sivilizatsiya”ga berilgan yagona va umumiy ta‘rif yo‘q.

Tarixiy jarayonlarning tadrijiy rivoji avj olayotgan hozirgi sharoitda esa, “sivilizatsiya” tushunchasi doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda va borgan sari yangicha mazmun kasb etib bormoqdaki, bular ushbu tushunchaning murakkab va serqirraligini tasdiqlamoqda. Ayrim mutaxassislarning ta‘kidlashicha, ushbu tushunchani muayyan va muntazam bir tizimlashtirish uchun urinishlarning paydo bo‘lishi xilma-xil asoslarga tayangan holdagi turlicha talqin etishlar miqdorining ham paydo bo‘lishiga olib kelmoqda[2]. Ilmiy jamoatchilik orasida “sivilizatsiya” tushunchasining geografik, kulturologik, sotsiologik, etnopsixologik ma‘nolari mavjudligi to‘g‘risidagi talqinlar ham mavjud.

## **XULOSA**

Yana bir muhim fikrni alohida ta‘kidlash kerakki, jamiyatning sivilizatsion taraqqiyoti nazariyasiga mustaqil O‘zbekiston taraqqiyoti misolida ham bir qator yondashuvlarni ta‘kidlashimiz mumkin. Jumladan, mamlakatimizning birinchi prezidenti I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga keng joriy etilib, tarix sinovidan muvaffaqiyat bilan o‘tgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” konsepsiyasini ham jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsion yondashuvning yorqin namoyon bo‘lishining bir ko‘rinishi deb hisoblash mumkin. Bugungi kunda mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston jamiyatining taraqqiyot strategiyasi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ham, o‘ylashimizcha, o‘z mohiyat-e‘tibori bilan sivilizatsion yondashuvning o‘ziga xos misoli bo‘la oladi va, shubhasiz, jamiyatimiz ravnaqi uchun xizmat qilishga qodirligi, xalqimiz farovonligini yangi yuksak bosqichga olib chiqishga

yo'naltirilganligi, mamlakatimizda iqtisodiy o'sish va yuksalish uchun poydevor vazifasini o'tayotganligi, qolaversa, jahon miqyosida keng jamoatchilikning munosib e'tirofiga sazovor bo'layotganligi bilan ijtimoiy falsafa nazariyasi rivojiga qo'shilgan muhim ta'limot deb hisoblashimiz mumkin. Bugungi kundagi mamlakatimiz faylasuflari oldida turgan vazifalardan biri ana shu ta'limotning turli jihatlarini puxta o'rganish va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi bilan bog'liq bo'lgan muhim tomonlarini tadqiq etishdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- [1] Маркс К. Восемнадцатое брюмера Луи Бонапарта. // Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Изд-е 2-е. - Т. 16.-С. 374-376.
- [2] Васильев Л.С. Исторические типы цивилизаций (традиции цивилизаций). // Цивилизации и исторический процесс. - М., 1982.
- [3] Маркс К., Энгельс Ф. Указ. соч. - С. 175.